



a

“JINOYAT VA JAZO” ROMANIDAGI JAZO SABABLARI TAHLILI

Muborak O'rozova

Termiz davlat universiteti

O'zbek filologiyasi fakulteti 2-bosqich talabasi

Muborakorozova@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada Dostoyevskiyning nafaqat rus, balki jahon adabiyotida o'zining falsafiy teranligi, psixologik yondashuvi va ijtimoiy ahamiyati bilan ajralib turuvchi shoh asari – “Jinoyat va jazo” romani chuqur o'rganilgan. Shuningdek, unda asarning markaziy g'oyalaridan biri – jazo masalasi, uning sabablari muallif yaratgan obrazlar orqali yuzaga chiqqan ichki ruhiy azoblar vositasida keng va chuqur tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Dostoyevskiy, “Jinoyat va jazo” romani, xarakter, psixologik tabiat, obraz, nazariya, nekbin tuyg'ular.

Abstract: This article deeply studies Dostoevsky's masterpiece, the novel "Crime and Punishment", which is distinguished not only by its philosophical depth, psychological approach and social significance in Russian but also in world literature. It also extensively and deeply analyzes one of the central ideas of the work - the issue of punishment, its causes through the inner mental suffering revealed through the images created by the author.

Keywords: Dostoevsky, novel "Crime and Punishment", character, psychological nature, hero, theory, optimistic feelings.

Аннотация: В статье глубоко исследуется шедевр Достоевского — философской глубиной, психологизмом и социальной значимостью в русской, но и в мировой литературе. Также широко и глубоко анализируется



одна из центральных идей произведения — проблема наказания, его причины через внутренние душевные страдания, раскрываемые через образы, созданные автором.

Ключевые слова: Достоевский, роман «Преступление и наказание», характер, психологическая натура, герой, теория, оптимистические чувства.

Chuqur psixologik tasvirlar muallifi hisoblanmish Fyodor Dostoyevskiyning “Jinoyat va jazo” asari – dunyo adabiyoti doirasida dolzarbligi jihatidan yuqori turuvchi hamda insonning axloqiy va falsafiy o’y-kechinmalarini va ruhiyatining eng murakkab tomonlarini chuqur tahlil qilishga qaratilgan mashhur psixologik yirik romonlardan biri. 1866-yilda yuzaga kelgan ushbu asarda muallif kishi ongida bo’ladigan ruhiy kurashlar va ularning inson hayotiga qay darajada ta’sir ko’rsatishini yaqqol tasvirlab bergan desak, mubolag’a bo’lmaydi. Bunda muallif qahramonlar xarakteristikasini to’laqonli ochib bergan. Xarakter – ma’lum ijtimoiy faoliyat turi. Xarakter, L.I. Timofeev aytganidek, obrazning yadrosi. Xarakter, birinchi navbatda, konkret hayotiy sharoitda o’z individual xatt-harakatlari va ruhiy kechinmalari bilan namoyon bo’ladigan insonning aniq tasviri.¹ Avvalo, asar nomiga e’tibor qaratadigan bo’lsak, bu nom insonning gunoh va jazo o’rtasidagi murakkab axloqiy kurashini, ichki pushaymonlik va ruhiy azoblarini aks ettirib kelganini ko’ramiz. Shuningdek, jinoyat kim tomonidan va qanday sodir etilgan, unga jazo sifatida nima hukm etildi. Aynan asarda jazo termini qanday ma’noda qo’llanilgan? Dostoyevskiy ushbu asarda shu savollarni ko’tarib, bosh qahramon Rodion Raskolnikov obrazi orqali savollarga javob berishga muyassar bo’ladi. Bu orqali asar kitobxonga voqealarni kechalari bilan o’ylab, tahlil qilib chiqishga majbur qiladigan bir yetuk asarga

¹ To’xta Boboyev. Adabiyotshunoslik asoslari. Toshkent. “O’zbekiston” 2002. 52b



aylanadi. Obraz – to'qima yordami bilan yaratilgan va estetikqiymat kasb etgan inson hayotining umumlashva ayni chog'da konkret manzarasidir.²

Rodion Raskolnikov – oltmishlarga borgan sudxo'r kampir Alyona Ivanovna va uning o'ttiz besh yoshlardagi birovga zarari tegmaydigan o'gay singlisi Lizaveta Ivanovnaning qotili. Nega u bu insonlarni o'ldirdi, bunga sabab nima? Kitobni endi mutolaa qilib boshlagan kitobxonlar bunga sabab, albatta, pul deb javob beradi, chunki o'z nomi bilan Alyona Ivanovna sudxo'r, demak, u ko'p mol-dunyoga ega shu bilan birga Raskolnikov asarda kambag'al holda tasvirlanadi va aynan shu sabab o'qishidan ham haydaladi. Shuningdek, asarda keltirilgan ushbu fikrlar ham aynan qahramonimizni kambag'allikdan chiqarishga turtki bo'lgan desak, xato bo'lmas: "Kambag'allik ayb emas, bu haq gap. Biroq yo'qchilik bu – illat, ha. Siz kambag'alchilikda hali o'zingizning tug'ma oliyjanob fazilatlarini saqlab qolgan bo'lasiz, yo'qchilikda esa ularni hech qachon va hech kim saqlab qola bilmaydi. Yo'qchilikda odamni odamzod to'dalari ichidan tayoq bilan emas, supurgi bilan haydab chiqaradilar, yana ham sharmandaroq bo'lsin desalar kerakda".³ Raskolnikovning qiynalishini xohlamagan singlisi va onasi maslahatlashib, singlisi – Dunyoni idora xizmatchisi va maslahatchisi Petr Petrovich Lujinga berishga rozi bo'lgani aytiladi Raskolnikovga yuborilgan xatda. Bundan a'yonki, Lujin boy, Dunyaning oilasi esa kambag'al. Dunya ham onasining, ham akasining muhtojligini shu bilan bartaraf etish maqsadida o'zini qurbon qiladi. Buni anglagan Raskolnikov o'ziga shunday savollarni beradi: "Ularni qachon boqmoqchisan? 10 yildan keyinmi? 10 yildan keyin onang ro'mol to'qiyverib, ko'zdan ayriladi, singling-chi? Shu 10 yil ichida singling qay ahvolga tushishini o'ylab ko'r, fahmladingmi?" Miyasida charx urgan bu fikrlar qahramonimizni jinoyatga eltgan bo'lsa ajab emas.

² L.I.Timofeev. Основы теории литературы. М. Просвещение. 1971. 62-б

³ Dostoyevkiy. "Jinoyat va jazo". Toshkent. "Ilm-ziyo-zakovat". 2021. 30-б.



Kitob mutolaasini tugatgan kitobxonlar esa jinoyat sodir etilishiga sabab pul deb hisoblamaydi. Chunki asar boshdan oxirigacha Raskolnikovning murakkab psixologik o'y-fikrlari asosida qurilgan. Raskolnikov ruhiyatidagi eng katta qudrat – uning chinakam inson ekanligida. Uning ruhiyatida katta ojizlik bor edi, ana shu ojizlik uni cheksiz vijdoniy azobga giriftor etdi. Oxir-oqibatda esa tavba-tazarru ila poklanmoq yo'lini tanlaydi. Uning nazariyasiga ko'ra, har bir inson ikki toifadan biriga tegishli -"oddiy odamlar" va "g'ayrioddiy odamlar". Raskolnikovning fikricha, birinchi toifa, ya'ni oddiy odamlar, ijtimoiy tamoyillar bilan uyg'un yashaydigan, qonunga bo'ysunadigan, qoidalarni buzmaydigan va hech narsani o'zgartirishni xohlamaydiganlar. Ammo ikkinchi toifadagi odamlar haqiqatan ham g'ayrioddiy -ular qonunni buzadilar, tarix yo'nalishini o'zgartirishga harakat qiladilar va hatto boshqa odamlarning hayotini tasarruf etishadi. Agar birinchilar oddiy odamlar bo'lsa, unda g'ayrioddiy odamlar bilan hamma narsa boshqacha, chunki bunday odam kuchli, jasur va oqim bilan bormaydi, ehtimol yorug'lik bunday odamlarga tayanadi. Shuni ta'kidlash kerakki, Rodion Raskolnikov obrazi, ayniqsa, u o'zining qaysi guruhga mansubligini ko'rishga qaror qilgan va shuning uchun bu kampirni o'ldiradigan paytda yorqin namoyon bo'ladi. Raskolnikov uchun jinoyat sodir etishga turtki bo'lgan narsa bir talaba bilan yosh zobitning suhbatini eshitib qolishi bo'ladi. Talaba gapida sudxo'r kampirni o'ldirib, bor-yo'g'ini olib ketsa ham, bundan zarracha afsuslanmasligini aytadi, chunki yo'qchilikdan, halokatdan, tanosil kasallaridan qirilib ketayotgan o'nlab oilalarni uning pullari evaziga xalos qilish mumkin bo'ladi. Bitta jon evaziga – buzg'unchilik va benavolikdan xalos etilgan minglab jonlar. Uning o'lgani ma'quldir. Ularning suhbatida tilga olingan bu gaplar Raskolnikovni qattiq hayajonlantirib yuboradi va jinoyatga undaydi.

Xullas, jinoyat sodir etildi, lekin jazo nima? Raskolnikov sudxo'r kampirni o'ldirgan bo'lsa-da o'zini hech qachon aybdor sanamaydi, chunki qahramonimiz kuchli shaxs tomonidan o'ldirilgan bir kimsa hech kimga foydali



bo‘lmagan, ammo bu boshqalarga baxtli bo‘lishga yordam beradi deb o‘ylagan. Biroq Lizaveta oddiy, begunoh ham ezgulik timsolidagi ayol edi. U tasodifan guvoh sifatida paydo bo‘lib, Raskolnikov uni ham o‘ldirishga majbur bo‘ladi. Aynan shu voqeadan uning vijdoni qiynala boshlaydi. U bir begunoh odamning qonini to‘kib qo‘ydi va bu esa uning nazariyasini chil-parchin qildi. Bu vaqtda uning ruhiy holati butunlay izdan chiqdi: doim xavotir, qo‘rquv, iztirob va uyat ichida yashaydi. Haroratli holatlar, og‘ir nafaslar, chalkash tushlar, yolg‘izlik va ruhiy holsizlik - bularning bari uning ichki ruhiy azobini go‘zal tarzda asarda ko‘rsatib o‘tilgan. U odamlar davrasidan qochadi, goho o‘zini oqlamoqchi bo‘ladi, gohida esa jinoyatini tan olmoqchi bo‘ladi. Atrofidagi hech bir inson esa uning ruhiy olamini tushunmaydi, tushunishni xohlamaydi ham. Buning o‘rniga ular qahramonimizning ustidan hattoki kuladi aqldan ozgan deb. Raskolnikovning bu vaqtdagi ichidan o‘tgan vaziyat shunday tasvirlanadi: “Kishining boshiga bir baxtsizlik tushganda, hatto unga juda ham yaqin bo‘lgan odamlarda ham bundan allaqanday qoniqish va mamnunlik hissi paydo bo‘ladi, hech istisnosiz barcha odamlarda shunday tuyg‘u bo‘ladi, kishi chin yurakdan hamdardlik va achinish bildiradi-yu, lekin o‘zida yuragining ichki bir qavatlarida mana shunaqa bir sezgini his qilib turadi, hatto eng yaqin kishilaringiz hatto bundan mustasno bo‘lmaydi”.⁴ Qahramonning jinoyat sodir etgandan keyingi ruhiy holati muallifning asosiy g‘oyasini ko‘rsatib beradi: har qanday jinoyatning jazosi faqat qonuniy yo‘l bilan hal qilinmaydi, balki ichki vijdon azob orqali ham u o‘zining kuchini ko‘rsatib qo‘ya oladi.

Yuqoridagi fikrlardan tayanib chiqaradigan xulosam shuki, “Jinoyat va jazo” asari inson qanday falsafiy nazariya yoki “yuksak” maqsad bilan jinoyat qilmasin, u hech qachon vijdon va axloqiy haqiqatdan qochib qutula olmaydi. Har bir jinoyat bu nafaqat qonunga zid faoliyat, balki inson qalbining ichkarisida

⁴ Dostoyevskiy. “Jinoyat va jazo”. Toshkent. “Ilm-ziyo-zakovat”. 2021. 234-b.



boshlanadigan azobli va og'ir jazodir. Raskolnikovning mavhum, tushunarsiz ruhiy azobi orqali Dostoyevskiy inson poklanishga faqatgina tan olish, tavba qilish va muhabbat orqali erishishini tasvirlaydi. Asar bizda shunday fikrni uyg'otadi: vijdon eng adolatli sudyadir, undan hech kim qochib qutula olmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. To'xta Boboyev. Adabiyotshunoslik asoslari. Toshkent. "O'zbekiston" 2002. 52b
2. L. I. Timofeev. Основы теории литературы. М. Просвещение. 1971. 62-b
3. Dostoyevskiy. "Jinoyat va jazo". Toshkent. "Ilm-ziyo-zakovat". 2021. 30-b.
4. Dostoyevskiy. "Jinoyat va jazo". Toshkent. "Ilm-ziyo-zakovat". 2021. 234-b.